

## CHASTOTALAR VA ULARNING TIRIK ORGANIZMLARGA TA’SIRI

**Axmatova Sanobar Ro’zimurot qizi**

*Samarqand viloyati Samarqand shahar 10 - sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi fizika fani o’qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Bu maqola atrofda dunyodagi elektromagnit tebranishlar, har qanday moddiy jismining chastotalarga ega ekanligi. Chastotalarning tirik organizmlarga ijobiy va salbiy ta’sirlari. Hayotimizga xavf soladigan tebranishlar va ulardan himoyalaniş yo’llari haqidagi ma’lumotlarni o’z ichiga oladi.*

**Soyut :** *Bu yazi, etrafimizdagi dunyodagi elektromagnit titreşimlerle, herhangi bir maddi cismin frekanslara sahip olduđu gerçeđiyle ilgilidir. Frekansların canlı organizmalar üzerindeki olumlu ve olumsuz etkileri. Hayatımızı tehdit eden titreşimler ve bunlardan korunma yolları hakkında bilgiler içerir.*

**Abstact:** *This article is about electromagnetic vibrations in the surrounding world, the fact that any material body has frequencies. Positive and negative effects of frequencies on living organisms. Contains information about vibrations that threaten our lives and ways to protect against them.*

**Kalit so’zlar:** *elektromagnit to’lqinlar, chastotalar, tirik organizmlar, Nikola Tesla, tajribalar, 963 Hz.*

### KIRISH:

Koinot, sayyoramiz, insoniyat jismoniy tanamizda mavjud bo’ladigan barcha narsaning manbai tebranishlardan iborat. Borliq va yo’qlik o’rtasida oldinga va orqaga o’tuvchi ko’rinmas lekin butun hayotimizni qamrab olgan to’lqin uzunliklari chastotasi deb nomalanadi.

Chastotalar juda kuchli to’lqin uzunliklari bo’lib, biz ularni oddiy ko’z bilan ko’ra olmaymiz, ammo uni atrof muhitga, sezgi a’zolarimizga, u yoki bu narsalarga ta’siri orqali sezishimiz mumkin. Tabiatdagi barcha narsalar kabi insonlarning o’z chastotalari mavjud. 20 - asrning boshlarida Amerikalik shifokor Bryus Teno inson chastotasini o’lchaydigan bir uskuna ixtiro qiladi va bir qancha tajribalar o’tkazadi. Tajribalar natijasida olim insonlarning o’rtacha chastotasini 62 - 72 Hz gacha ekanligini aniqlaydi. Agarda bu chastota o’z diapazonidan pastlay boshlasa turli kasalliklar kelib chiqishi ham ta’kidlanadi.

Nikola Tesla tebranish qurilmasi haqidagi ixtirosini ta’riflar ekan „Men tebranish qurilmasi orqali bir necha soniya ichida bir binoni silkita oldim. Agar men yana 10 daqiqa davom etganimda edi butun boshli binoni va atrof muhitni vayronaga aylantirgan bo’lardim. Agar men xoxlasam Bruklin ko’prigini ham bir necha soat ichida yer bilan yakson qilishim ham mumkin edi” deydi.

Teslaning aytishicha 800 darajadagi tebranish insonning metafizik qobiliyatlarini kuchaytirar ekan.

Chastotalar miya to’lqinlarini tekislash va manipulyatsiya qilish yoki hujayralarni davolash jarayonlarini rag’batlantirish orqali inson tanasiga ta’sir qilishi mumkin.

Masalan 432 Hz dagi chastotalardan inson tanasini qayta tiklash va ichaklar faoliyatini yaxshilashda, ong va tana muammolarini davolashda foydalanish mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, u tashvishlarni kamaytiradi va qon bosimi va yurak tezligini pasaytiradi. Miyaning ikkala yarim sharlari o'rtasidagi sinxronlikni rag'batlantiradi, ijodkorlikni, tushunchani va sezgini oshiradi.

Bu chastotadan qadimgi yunonlar, misrliklar, tibet rohiblari va Motsart, Verdi va boshqa mashhur bastakorlarning musiqalarida ishlatilgan. Matematik izchilligi tufayli "ilmiy sozlash" nomi bilan tanilgan va o'tgan asrlarning ko'plab olimlari tomonidan tasdiqlangan.

Ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko'ra 528 chastota "Sevgi" chastotasi va farovonlikka ta'siri uchun "mo'jiza" ohangi sifatida tanilgan. Hz 528 Hz ohang stress gormoni darajasini pasaytiradi, DNKda ultrabinafsha nurlarning so'rilishini oshiradi, kasallik va kasallik sabablarni olib tashlash orqali DNKni davolashda foydalaniladi. 2010 - yilda okeandan neftni tozalash uchun foydalanilgan bir qator chastotalardan biri hisoblanadi.

528 HZ Chastotasi tabiatda o't, xlorofill, kislorod, kamalak, quyosh nurlari va asalarilarning shovqinida uchraydi. Jon Lennonning "Imagine" qo'shig'ida sozlash chastotasi sifatida ishlatilgan.

Ko'p sonli tovush chastotalari orasida 963 HZ chastotasi bizning ongimiz va ruhiy holatimizga chuqur ta'siri bilan ajralib turadi, ongning yuqori darajalari, ruhiy o'zgarish va chuqur shifo bilan bog'liq.

Shifobaxsh ohanglar chastotalari hozirgi zamonda tana va ongni bir necha usul bilan davolay oladigan chastotalar sifatida tan olinmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 639 (Hz) chastota sevgi va ijobiy energiyani kuchaytiradi.

131, 147, 165, 169 Hz og'ir depressiyaga olib kelishi mumkinligi eksperimental ravishda aniqlangan. 330Hz ishtahani rag'batlantiradi.

Shu bilan bir qatorda, chastotalardan g'arazli maqadlarda foydalanish, insonlarni ruhiy va jismoniy kasalliklarga duchor qilish yoki ularni istagan buyruqni bajaradigan robot, zombilarga aylantirib qo'yishda ham foydalanish mumkin. Maxfiy razvetka ma'lumotlarida insonlarni hayvonlashtirish, o'zgartirish, jinnilik bilan o'ldirish kabi ma'lumotlar qayd etilgan. 1950 - 1960 yillarda nashr etilgan tadqiqotlar natijalarida aytilishicha AQSH nazorati ostida Yaponiya, Germaniya, Filippin qamoqxonalari aqlni nazorat qiluvchi amaliyotlar bir necha bor olib borilgan. Bu qamoqxonalarda, elektroskok va yuqori dozadagi chastotalar berish orqali insonlarga ta'sir o'tkazilgan. Natijada insonlarda galyutsinatsiya kuzatilgan.

Bugungi kunda chastotalardan eng zararli foydalanishning yorqin timsoli hayvonlarning ommaviy o'limi va ruhiy kasalliklarning keng tarqalishidir. Chastotalar insonlarga qaraganda hayvonlar va qushlarga tezroq ta'sir ko'rsatadi chunki hayvonlar rezonanslarni insonlardan ko'ra yaxshiroq idrok eta oladilar. Salbiy zaryadlangan energiya oqimi insonlarga ham ta'sir qiladi.

Bugungi kun mutaxasislarining fikricha suniy yo'ldoshlardan insoniyatga qarshi urushlar uchun qurol sifatida ishlatilishi mumkin. Lekin hech qanday davlatda bu sun'iy yo'ldoshlardan himoyalaniş mexanizmi mavjud emas. Ammo insonlar har qanday chastota ta'siridan himoyalaniş mumkin.

Ulkan chastota mexanizmiga ega atirgul yog'i inson tanasidagi zararli tebranishlarga qarshi qalqon vazifasini bajara oladi. Tanamizning ayrim qismlariga atirgul yog'i surtib zararli chastotalardan himoyalanishimiz mumkin.

Bundan tashqari tahorat olib ibodat bilan shug'ullanish salbiy chastotalar yukini sezilarli kamaytirishi aniqlangan. AQSHda neyroxirurglar va kvant olimlari tomonidan o'tkazilgan 13 ta miya operatsiyasi natijalariga ko'ra ibodat qiluvchilar va meditatorlarning miya neyronlarida makon va vaqtni idrok etuvchi neyronlarning passiv ekanligi aniqlandi. Demak, o'sha paytda atrof muhitga tarqalayotgan elektromagnit to'lqinlar ibodat qilayotgan insonlarga yaqinlasha olmagan va hech qanday zarar ham bera olmagan.

Bazi suralar, namoz va zikrlardan chiqadigan chastotalar tashqaridan kelayotgan zararli to'lqinlarni zararsizlantirish kuchiga ega. Masalan Baqara surasidagi Oyatul-Kursiy (255-oyat) Baqara surasidagi eng kuchli oyat bo'lib, ongning yuqori darajalari, ruhiy o'zgarish va chuqur shifo bo'ladigan 963 Hz chatotaga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkiniki insoniyat turli zararli elektromagnit to'lqinlar xavfidan himoyalanish uchun doimiy tahoratli holda yurishi, ibodatlarni o'z vaqtida ado etishi, ish bilan band bo'lgan boshqa paytlarda esa zikrda bo'lishi, uxlashdan avval elektr jihozlarini tarmoqdan uzish, mobil telefonlarni o'chirib qo'yish yoki kamida 1 metr masofa uzoqlikda saqlash tavsiya etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Savelyev I.V. Umumiy fizika kursi, t. 1-3.-M, Nauka, 1989-1992.
- 2.Sivuxin D.V. Umumiy fizika. Mexanika.-T., O'qituvchi, 1981.
- 3.Ahmadjonov O.I. Fizika kursi. 1-3 q.-T., O'qituvchi, 1988-1989.
- 4.Safarov A.S. Umumiy fizika kursi. Elektromagnetizm va to'lqinlar.-T., O'qituvchi,1992.
- 5.Qosimov A., Safarov A. va boshq. Fizika kursi. 1q.-T., O'zbekiston, 1994.
- 6.Nazarov U.K. va boshq. Umumiy fizika kursi 1q. -T., O'zbekiston, 1992.
7. <https://youtu.be/kQg6fAXodnY?si=PkVPxBy16oRcl9km>
- 8.<https://apriori-nauka.ru/uz/securities/na-kakoi-chastote-lechit-cheloveka-chastota-kolebanii-chelovecheskogo-tela.html>
- 9.<https://iia-rf.ru/uz/databasenya-for-children/vzaimosvyaz-chelovek-i-zvukovye-vibracii-vozdeistvie/>